

Milliy valyutada eskrou-hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish uchun shartnoma tuzish bo'yicha jismoniy shaxslarga

OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Bank" deb ataladi) ushbu ofertani qabul qilgan jismoniy shaxslarga (keyingi o'rinlarda "Mijoz" deb ataladi) **ko'chmas mulk obyektlari, M, N, O va G toifalariga mansub transport vositalari va maxsus avtotransport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari** (keyingi o'rinlarda oldi-sotdi shartnomasi deb ataladi) bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun eskrou-hisob raqamini (keyingi o'rinlarda "**eskrou-hisob raqami**" yoki "**hisob raqami**" deb ataladi) ochish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi, uy-joy qurilishiga investitsiya kiritish shartnomalari asosida rasmiylashtiriladigan oldi-sotdi shartnomalari bundan mustasno.

1.2. Mazkur ommaviy oferta "Ko'chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun notariuslar va banklar o'rtasida elektron ma'lumotlar almashish tartibi to'g'risidagi Nizom" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026 yil 16 martda 3790-son bilan ro'yxatga olingan) (bundan buyon matnda Nizom deb yuritiladi) ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, alohida rejimli bank hisobvarag'i (eskrou) shartnomasi hisoblanadi.

1.3. Ushbu shartnomaning predmeti quyidagilardan iborat:

- Mijozga Bankda eskrou-hisob raqamini ochish;
- Bank tomonidan Mijozning pul mablag'larini eskrou-hisob raqamiga qabul qilish;
- eskrou-hisobvaraqdan sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag'iga belgilangan tartibda oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish.

1.4. Eskrou-hisob raqami:

- omonat hisoblanmaydi;
- foizlar hisoblanishini nazarda tutmaydi;
- faqat ushbu ofertaning 1.1.-bandida ko'rsatilgan maqsadli hisob-kitoblar uchun ishlatiladi.

1.5. Eskrou-hisob raqami Bankning mobil ilovasida elektron hamyon shaklida ochiladi va yuritiladi. Bunday hamyon maxsus rejimli bank hisobvarag'i (eskrou) deb e'tirof etiladi.

1.6. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar Mijoz tomonidan Bank xizmatlariga o'z vaqtida haq to'lash va ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarish sharti bilan Bank tomonidan ko'rsatiladi.

1.7. Bank oldi-sotdi shartnomasining tarafi hisoblanmaydi.

1.8. Mijoz ushbu Ofertani qabul qilar ekan, Bankka quyidagilarni so'zsiz va qaytarib olinmaydigan tarzda buyuradi:

- eskrou-hisob raqamiga o'tkazilgan pul mablag'larini blokirovka qilish;
- Mijozning bunday pul mablag'laridan foydalanishini cheklash;
- ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlar yuzaga kelganda, Mijozning qo'shimcha buyrug'i, tasdig'i yoki xabarisiz keyinchalik avtomatik ravishda pul mablag'larini yechib olish.

1.9. Eskrou-hisob raqamiga pul mablag‘lari Mijoz tomonidan oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha to‘lovdan tashqari boshqa maqsadlarda ishlatilmaydi.

1.10. Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha to‘lov majburiyatlari kechiktirilgan taqdirda, Mijoz yoki uning vakili kelishilgan (dastlabki) pul mablag‘larini tegishli eskrou-hisob raqamiga o‘tkazadi.

1.11. Bankning kredit mablag‘lari asosida oldi-sotdi shartnomasi to‘liq yoki qisman moliyalashtirilganda, Bank notariusga bu haqda elektron ma‘lumot taqdim etadi va kredit mablag‘lari oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot olingandan so‘ng bir ish kuni ichida (agar ma‘lumotlar ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) sotuvchi yoki uning vakilining hisobvarag‘iga dasturiy yo‘l bilan o‘tkaziladi.

1.12. Bank tomonidan mijozning pul mablag‘lari eskrou-hisob raqamiga o‘tkazilgandan so‘ng, Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimida (ABT) Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan elektron ma‘lumotlar shakllantiriladi.

1.13. Ushbu Ofertaning maqsadlari uchun "Tizim" deganda Nizomga muvofiq notariuslar va banklar o‘rtasida elektron ma‘lumotlar almashinuvini ta‘minlaydigan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi tushuniladi. Bank tomonidan Tizimdan olingan ma‘lumotlar eskrou-hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishonchli va yetarli hisoblanadi.

1.14. Bank Tizimdan oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash to‘g‘risidagi ma‘lumotni olgandan so‘ng dasturiy usulda memorial order bilan mijozning yoki uning vakilining eskrou-hisob raqamidan avtomatik ravishda sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) shu bank ish kunida (agar ma‘lumot ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) pul mablag‘larini o‘tkazadi. Bunda ikki yoki undan ortiq sotuvchi yoki ularning vakillari mavjud bo‘lgan taqdirda ularning har biri uchun pul mablag‘larining tegishli miqdori aniq ko‘rsatiladi.

1.15. Notarius tomonidan Tizim orqali Bankka Nizomga (Notariuslar tomonidan Bankning elektron tizimiga taqdim etiladigan ma‘lumotlar ro‘yxati) muvofiq oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va tegishli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Bank Mijozning tegishli arizasiga asosan eskrou-hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini Mijozga qaytaradi.

1.16. Oldi-sotdi bitimi amalga oshirilmagan taqdirda, Mijozga pul mablag‘larini qaytarish Bank tomonidan bunday pul mablag‘lari Mijoz tomonidan eskrou-hisob raqamiga (naqd yoki naqdsiz) qanday shaklda kiritilgan bo‘lsa, xuddi shunday shaklda amalga oshiriladi.

1.17. Mijoz tomonidan pul mablag‘larini o‘tkazish shartlari yuzaga kelganidan keyin ushbu shartnomani bajarishga roziligini qaytarib olishi yuridik kuchga ega emas.

2. SHARTNOMA TUZISH TARTIBI

2.1. Mazkur shartnoma jismoniy shaxslar - mijozlar bilan ommaviy oferta shartlari asosida tuziladi. Aksept (ushbu shartnomani tuzishga rozilik) jismoniy shaxs tomonidan Bankka ushbu ommaviy ofertaning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani taqdim etishdir. Ushbu shartnoma Mijoz tomonidan akseptlangan va Mijozga eskrou-hisob raqami ochilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

2.2. Eskrou-hisob raqami ochish faqat Mijozning shaxsan Bank bo‘limiga murojaat qilganda amalga oshiriladi. Mijozni identifikatsiya qilish uning shaxsan ishtirokida amalga oshiriladi.

2.3. Eskrou-hisob raqamini ochish mijozning Arizasi hamda uning shaxsini identifikatsiya qilish va verifikatsiyadan o'tkazish (zarur holatlarda) tartib-taomillari asosida amalga oshiriladi.

Mijozning shaxsini tasdiqlash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

(i) shaxsni tasdiqlovchi hujjatning qog'oz ko'rinishidagi aslini taqdim etish orqali; va (yoki)

(ii) O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) va "Ijtimoiy karta" mobil ilovasida joriy etiladigan shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjatni taqdim etish orqali. Ushbu usullar bilan olingan elektron hujjatlar va ma'lumotlar qog'ozdagi hujjatlarga teng deb tan olinadi hamda Bank tomonidan majburiy tartibda qabul qilinadi.

Bank taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubhalar yuzaga kelgan yoki jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarish zarur bo'lgan taqdirda eskrou-hisob raqamini ochishni rad etishga yoxud qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarni so'rab olishga, shuningdek tekshirish bo'yicha boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli.

2.4. Mijoz Bank bo'linmasiga murojaat qilganda, Bank:

- Mijozning qurilmasiga Bankning mobil ilovasini o'rnatadi (agar u bo'lmasa);
- Mijozni ro'yxatdan o'tkazadi;
- eskrou-hisob raqami sifatida ishlatiladigan elektron hamyonni ochadi.

2.5. Bankning 2.4-bandda ko'rsatilgan harakatlari bevosita Mijoz ishtirokida amalga oshiriladi va Mijozning roziligi bilan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

2.6. Bitta oldi-sotdi shartnomasiga Bankda bitta eskrou-hisob raqami ochiladi.

2.7. Mijoz eskrou-hisob raqami ochish to'g'risidagi arizani imzolashdan oldin quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va (yoki) Bank bo'linmasida taqdim etilgan ushbu Oferta shartlari bilan tanishganligini;
- ushbu Oferta shartlari unga tushunarli ekanligini.

3. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- eskrou-hisob raqami holati to'g'risida ma'lumot olish;
- notarius tomonidan Tizim orqali Bankka Nizomga muvofiq oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar (Notariuslar tomonidan Bankning elektron tizimiga taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxati) va tegishli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda mablag'larni qaytarishni talab qilish;
- eskrou-hisob raqami bo'yicha ko'chirmalar olish;
- shartnomani belgilangan tartibda bekor qilish.

3.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

- o'zining eskrou-hisob raqamiga zarur miqdorda pul mablag'larini kiritish;
- eskrou-hisob raqamidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish (oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha to'lov uchun);
- Bankka ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;

- Bankda oʻrnatilgan ish rejimiga, toʻlov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga, amaldagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining meʼyoriy hujjatlari talablariga rioya qilish;
- Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq eskrou-hisob raqami boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- oʻz hisob raqami holati toʻgʻrisida maʼlumot olayotganda, oʻtkazilgan amaliyotlarning hisob-kitob hujjatlariga muvofiqligini tekshirish. Oʻtkazilgan amaliyotlarda ogʻishlar, buzilishlar yoki shubhalar aniqlangan taqdirda, bunday maʼlumotlar olingan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay bu haqda Bankni yozma ravishda xabardor qilish;
- xizmatlar koʻrsatilgan kunda amalda boʻlgan Bank tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq hisob raqamga Bank tomonidan xizmat koʻrsatganlik uchun oʻz vaqtida haq toʻlash;
- Bankka taqdim etilgan hisob-kitob va boshqa hujjatlarda koʻrsatilgan maʼlumotlarning notoʻgʻriligi uchun mustaqil ravishda toʻliq javobgar boʻlish;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga kiritilgan oʻzgartirishlar, oʻzgargan yashash joyi va bogʻlanish telefonlar raqamlari toʻgʻrisida darhol shu kunning oʻzidayoq Bankni yozma xabardor qilish, shuningdek, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini taqdim etish;
- hisob raqam boʻyicha har qanday amaliyotlarni amalga oshirishda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (mijoz vakili uchun esa shuningdek belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma) ni taqdim etish;
- masofaviy xizmat koʻrsatish kanallariga kirish uchun Bank tomonidan taqdim etilgan barcha identifikatsiya maʼlumotlarining, shu jumladan loginlar, parollar, PIN-kodlar, bir martalik parollar (OTP), SMS-kodlar, biometrik maʼlumotlar va boshqa autentifikatsiya vositalarining saqlanishi va maxfiyligini taʼminlash.

4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagilarga haqli:

- Bank tariflariga muvofiq Bankka toʻlanishi lozim boʻlgan vositachilik haqini Mijozning hisob raqamidan akseptsiz yechib olish;
- Eskrou-hisob raqamga xizmat koʻrsatish uchun tariflarni belgilash;
- Mijoz tomonidan amaldagi qonun hujjatlarini, jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga hamda ommaviy qirgʻin qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzganlik holatlari mavjud boʻlganda, shuningdek hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi va ularni Bankka taqdim etish muddatlari buzilganda Mijozning bank eskrou-hisob raqami boʻyicha amaliyotlarni toʻxtatib turish yoki ularni amalga oshirishni rad etish;
- Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiyalar doirasiga kirsa yoki unga kirish xavfi mavjud boʻlgan taqdirda, Bank Mijoz tomonidan oʻtkaziladigan operatsiyani oʻrganish uchun qoʻshimcha maʼlumotlarni talab qilishga, operatsiya summasini cheklash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki xizmat koʻrsatishni rad etish va Mijoz bilan tuzilgan shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir;
- Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining meʼyoriy hujjatlari bilan Bank zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu shartnomani bekor qilish toʻgʻrisida talab qoʻyish;
- Mijozni identifikatsiya qilish va eskrou-hisob raqamiga xizmat koʻrsatish boʻyicha har qanday hujjatlarni talab qilish;
- bank operatsiyalari boʻyicha limitlar belgilash;
- eskrou-hisob raqami boʻyicha Bank mobil ilovasining funkcionalligini cheklash, shu jumladan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlash va "faqat koʻrish" rejimini oʻrnatish;

- Tizim vaqtincha ishlamay qolganda, uning funksionalligi tiklanmaguncha operatsiyalar bajarilishini to'xtatib turish.

4.2. Mijoz ushbu bilan Bank tegishli ma'lumotlarni Bank veb-saytida kamida 10 (o'n) kalendar kuni oldin joylashtirish orqali Mijozni avvaldan xabardor qilgan holda quyidagilarni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartirishi mumkinligiga rozilik bildiradi, jumladan:

- Bank Tariflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish: Mijoz tomonidan Bankka komissiya to'lash va mazkur shartnoma bo'yicha bank xizmatlari bilan bog'liq boshqa to'lovlarni amalga oshirishning miqdori, tartibi va shartlarini o'zgartirish;
- Ushbu ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Bank operatsiyalari bo'yicha limitlar o'rnatish va ularni o'zgartirish.

Mijoz Bank veb-saytida mazkur Oferta va Tariflarning yangilanishlarini mustaqil ravishda kuzatib borishi shart. Ko'rsatilgan muddatda Bank veb-saytida ma'lumotlarni joylashtirish Mijozni tegishli tarzda xabardor qilish hisoblanadi.

4.3. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- Mijozga belgilangan tartibda eskrou-hisob raqamini ochish;
- ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Mijozning eskrou-hisobraqamiga pul mablag'larini qabul qilish va o'tkazishni amalga oshirish;
- Eskrou-hisob raqami bo'yicha operatsiyalar va Mijozning ma'lumotlarini sir saqlash. Mijozning roziligisiz hisob raqam bo'yicha operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotnomalar uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda taqdim etiladi.
- Mijozning oferta va tariflar bilan mustaqil ravishda tanishishi uchun Bankning www.infinbank.com rasmiy veb-saytida Ommaviy oferta va tariflarni joylashtirish.
- Mijozning talabiga binoan eskrou-hisob raqamidan ko'chirma taqdim etish.
- belgilangan tartibda oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun Mijozning eskrou-hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazish.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Mijoz o'zi tomonidan Bankka taqdim etilgan pul-hisob-kitob yoki boshqa hujjatlardagi ma'lumotlarning noto'g'riligi yoki soxtaligi uchun javobgar bo'ladi va Bankka bunday ma'lumotlarni taqdim etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashi shart.

5.2. Mijoz telefon raqami o'zgartirilishi haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmagan taqdirda Bank Mijozning mobil telefoniga omonat to'g'risida SMS-ma'lumot jo'natganda bank sirlarining oshkor etilishi uchun, shuningdek, unga omonat bo'yicha xabarlarini o'z vaqtida yubormaganlik uchun javobgar bo'lmaydi..

5.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda tomonlar (Bank va Mijoz) ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni buzganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.4. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq eskrov hisob raqamining bloklanishi natijasida Mijozning yo'qotilgan foydalari yoki yo'qotgan zararlari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.5. Mijozning logini, paroli yoki mobil raqamidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha harakatlar Mijoz tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi. Bank mijoz ma'lumotlarini buzishning har qanday oqibatlari uchun javobgar emas.

5.6. Bank Mijozning ma'lumotlarini o'zi oshkor qilishi natijasida, shu jumladan telefon, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, tashqi veb-saytlar, havolalar orqali yoki ruxsatsiz dasturlarni o'rnatish orqali ma'lumotlarga kirishga muvaffaq bo'lgan uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelgan Mijozning yo'qotishlari uchun javobgar emas.

5.7. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- oldi-sotdi shartnomasini tasdiqlashda notariusning harakatlari;
- Tizim ishidagi kechikishlar yoki uzilishlar uchun;
- notarius tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni olmaganlik yoki noto'g'ri taqdim etganlik uchun.
- notarial tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasining qonuniyligi.

6. FORS – MAJOR

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar ushbu shartnoma tuzilgandan keyin tomonlar oldindan kura olmagan va oqilona choralar bilan oldini ololmagan favqulodda holatlar oqibatida yuzaga kelgan yengib bo'lmas kuch natijasida bo'lsa.

6.2. Yengib bo'lmas kuch holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Ushbu shartnoma Mijoz tomonidan akseptlangan va Bankda eskrou-hisob raqami ochilgan paytda tuzilgan hisoblanadi va quyidagi muddatgacha muayyan eskrou-hisob raqamiga nisbatan amal qiladi:

- oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchiga (uning vakiliga) pul mablag'larini o'tkazish;
- yoki ushbu Ofertada nazarda tutilgan hollarda Mijozga pul mablag'larini qaytarish.

7.2. Mijoz ushbu shartnomani bajarishdan faqat Bank Tizimdan oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotni olgunga qadar bosh tortishga haqli.

7.3. Bank tomonidan Tizimdan oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumot olingan paytdan boshlab Mijozning tashabbusi bilan shartnomani bekor qilishga, shuningdek, pul mablag'larini qaytarishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Bank ushbu shartnomani bajarishdan quyidagi hollarda bosh tortishga haqli:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu ofertada nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda;
- Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartlari buzilganda;

7.5. Ushbu shartnoma muayyan eskrou-hisobvaraqqa nisbatan quyidagi paytdan boshlab bekor qilingan hisoblanadi:

- oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchiga pul mablag'larini o'tkazilgan vaqtdan boshlab;

- yoki Mijozga pul mablag‘lari qaytarilgan vaqtdan boshlab.

7.6. Ushbu shartnomaning 7.1-bandida ko‘rsatilgan holatlarning yuzaga kelishi Mijozning qo‘shimcha ko‘rsatmasi va xabarisiz uning tegishli eskrou-hisob raqamini yopish uchun asos bo‘ladi.

8. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

8.1. Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, Mijoz Bankka o‘z faoliyatini yuritish, Bank tomonidan mazkur shartnoma shartlarini bajarish hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlarda Bank tomonidan Mijozning har qanday shaxsiy ma‘lumotlariga ishlov berish va ulardan foydalanishga shartnomaning butun amal qilish muddatiga va u bekor qilingandan keyin besh yil mobaynida roziligini taqdim etadi.

8.2. Ushbu bilan Mijoz barcha aloqa vositalari: pochta tarqatmasi, SMS-tarqatma, ovozli tarqatma, elektron xatlar tarqatmasi va h.k.dan foydalangan holda, ammo ular bilan cheklanmasdan bevosita aloqalarni amalga oshirish yo‘li bilan Bank xizmatlarini targ‘ib qilish bilan bog‘liq reklama materiallarini Bankdan qabul qilishga o‘z roziligini bildiradi.

8.3. Mijozning arizasiga asoslan (ushbu ofertaga 1-ilova):

- Agar bir yil davomida hisobvaraqlar bo‘yicha amaliyotlar amalga oshirilmasa va hisobvaraqlarda qoldiq bo‘lmasa, Bank shartnomani bekor qiladi va Mijozning hisobvaragini yopadi;
- Agar bir yil davomida hisobvaraqlar bo‘yicha amaliyotlar amalga oshirilmagan bo‘lsa va hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiq mavjud bo‘lsa, hisobvaraqlardagi qoldiq Bank tomonidan harakatsiz hisob raqamiga o‘tkaziladi, shundan so‘ng ushbu shartnoma bekor qilinadi va Mijozning hisobvaragi yopiladi.

8.4. Agar Mijoz bank hisobvarag‘idagi qoldiq harakatsiz hisobvaraqlar o‘tkazilganidan keyin 10 (o‘n) yil davomida ushbu qoldiqni talab qilmasa, harakatsiz hisobvaraqlardagi qoldiq “29840 – Moliya vazirligiga o‘tkaziladigan talab qilib olinmagan depozitlar” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

8.5. Agar texnik jihatdan imkon bo‘lsa, Mijozning mobil telefoniga hisob raqam qoldig‘i, kirim-chiqim operatsiyalari va boshqa zarur ma‘lumotlarni yuborish uchun eskrou-hisob raqam ochilganda mijozga SMS-xabar berish xizmati avtomatik ravishda ulanadi.

8.6. Hisob raqam bo‘yicha amaliyotlar to‘xtatib qo‘yilgan holatlarda, Bank amaliyotlar to‘xtatilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozga uning hisob raqamiga xizmat ko‘rsatish to‘xtatib qo‘yilganligi va uning sabablari to‘g‘risida ma‘lumot (xabar) yuboradi.

8.7. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o‘rtasida ikki tomonlama muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Agar tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, ular o‘rtasidagi nizo quyidagicha hal etiladi:

- yoki Bank (mijozga eskrou-hisobvaraqlar qayerda ochilganligiga qarab, Amaliyot boshqarmasi, filial, bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi sudda;

- O‘zR SSP yoxud uning Toshkent shahar boshqarmasi qoshidagi hakamlik sudida;

- yoki O‘zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi va uning hududiy filiallari huzuridagi hakamlik sudida.

8.8. Ushbu Ofertani qabul qilish orqali Mijoz shartnomaning barcha shartlarini so‘zsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi va uni bajarish majburiyatini oladi.

8.9. Bank ushbu Ofertaning yangi tahririni va Bank Tariflarini veb-saytga joylashtirish orqali ushbu Oferta shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Kiritilgan o'zgarishlar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan joylashtirilganidan so'ng 10 kalendar kun o'tgach Bank va Mijoz uchun majburiy bo'lib qoladi.

8.10. Agar Bank tomonidan yangi tahrirdagi ushbu Oferta va (yoki) Tariflar Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgandan so'ng, Mijoz ushbu shartnomani bekor qilmasa va bank xizmatlaridan foydalanishni davom ettirsa (shu jumladan, hisob raqam bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, masofaviy kanallardan foydalanish yoki hisob raqamdagi mablag'larni boshqacha tarzda tasarruf etish), Mijozning bunday xatti-harakati yangi shartlarni qabul qilish va ularga to'liq rozilik berish hisoblanadi.

8.11. Ushbu Ofertaning shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari qo'llaniladi.

8.12. Bank ushbu shartnoma tuzish va uni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan Bank bilan bog'lanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu bog'lanish aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi, jumladan (biroq ular bilan cheklanmagan holda): kontakt-markazning telefoni, elektron pochta, mobil ilova orqali. Bank ko'rsatilgan aloqa vositalari orqali murojaatlarni qabul qilish va o'z vaqtida ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

8.13. Mijozning ushbu shartnoma doirasida Bank tomonidan yuborilgan xabarnomalarni, shu jumladan SMS-xabarnomalarni, Bankning mobil ilovasi va boshqa aloqa kanallari orqali xabarnomalarni olmaganligi eskrou-hisob raqam bo'yicha operatsiyalarning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi.

9. BANK REKVIZITLARI

“InfinBank” AJ

STIR: 206 942 764, MFO: 01041, OKED: 64190

Manzil: 100000, Toshkent sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 17B-uy

Qisqa raqam: (1214)